TALABALIK DAVRIDA TOLERANTLIK-PSIXOLOGIK OMIL SIFATIDA

Abdusamatova Shahlo Saidmuratovna
Chirchiq davlat Pedagogika universiteti
Psixologiya kafedrasi п.ф.ф.д.(PhD)
ORCID ID: https://orcid.org/0009-0002-3096-6271
abdusamatova.71.mail.ru.gmail.com ,+998901007100

Annotatsiya: Talabaga xos rivojlanish xususiyatlari, tendensiyasini nazariy tahlillash va ulardagi ustuvor fazilatlarning tolerantlikni ijtimoiy-psixologik modeliga muvofiqligini tekshirish, koping-xulq-atvor strategiyalarini yaratish, psixologik-pedagogik korreksion dasturlar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish yo'llari, usullari, vositalarini aniqlashni dolzarb muammo sifatida kun tartibiga qo'ymoqda.

Kalit so'zlar: Talaba, rivojlanish, tendensiya, nazariy tahlil, fazilat, tolerantlik, ijtimoiy-psixologik model, koping-xulq-atvor, strategiya.

Аннотация: Теоретический анализ особенностей развития и тенденций учащихся, проверка соответствия их приоритетных качеств социально-психологической модели толерантности, разработка стратегий преодоления трудностей, создание психолого-педагогических коррекционных программ и определение путей, методов и средств их практического применения ставятся на повестку дня как актуальная проблема.

Ключевые слова: Учащийся, развитие, тенденция, теоретический анализ, добродетель, толерантность, социально-психологическая модель, стратегии преодоления трудностей.

Annotation: Theoretical analysis of student development characteristics and tendencies, verification of their priority qualities' compliance with the socio-psychological model of tolerance, development of strategies for overcoming difficulties, creation of psychological and pedagogical correctional programs, and identification of ways, methods, and means of their practical application are all urgently addressed.

Keywords: Student, development, tendency, theoretical analysis, virtue, tolerance, socio-psychological model, overcoming strategies.

Kirish

Tolerantlik tushunchasi insonlaring o'zaro munosabatlarini ularning millati, irqi, nasl-nasabi, madaniyati va urf-odatlari, iqtisodiy ahvoli, dini va e'tiqodiga qaramasdan muvozanatda saqlash me'yorlarini o'zida mujassam etadi. Tolerantlik insonning turli iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy, diniy munosabatlarga kirishishining qonun-qoidalarini belgilab beradi.

SHuningdek, u bir-biriga uxshamagan insonlarni birga-axillikda yashashga intilishini xam uzida namoyon etadi. azkur bir-biriga dialektik boglik jarayonlar tolerantlikni pozitiv, tarakkiyot imperativlariga tugri keladigan ijtimoiy-madaniy xodisaga aylantiradi degan ta'rifni berib tolerantlikni turli yunalishlardagi ko'rinishini keltirib o'tgan

1. YOshlarning ijtimoiy-madaniy faolligini oshirishda etnomadaniy an'analar muxim rol uynaydi. Ushbu an'analardan unumli foydalanish ularda uzga xalkdarning etnomadaniyati hakida zarur tasavvurlar va munosabatlar uygotadi. Uzbek xalki etnomadaniyatidagi internatsionallik, tolerantlik, yaratuvchanlik, polistilistik xususiyatlardan unumli, ratsional foydalanish lozim.

2. YOshlarning ijtimoiy-madaniy faolligi mamlakatimizdagi madaniy rang-baranglik, plyuralizmni kullab-kuvvatlashga, millatlar va elatlar urtasidagi inokdik, axillikni, dustlikni mustax,kamlashga xizmat kilishini unutib bulmaydi. SHuning uchunijtimoiy-madaniy tadbirlar ushbu umuminsoniy tamoyillarga, Uzbekistondagi millatlararo, xalklararo birdamlikni mustaxkamlashga karatilishi xamda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barkarorligini ta'minlashga yunaltirilishi darkor.

3. Tolerantlik befarkdik tarzida xam kelishi mumkin, ammo u kishilararo munosabatlarni erkin, inson xukukdari va demokratik tamoyillar asosida kechishini kullab-kuvvatlash orkali ijtimoiy-madaniy vokelikka aylanadi.

4. Tolerantlik madaniyati - kishilararo, millatlararo, davlatlararo munosabatlarning tenglik, erkinlik, uzaro xurmat, birbirlarining madaniyatiga, ijodiy izlanishlariga, uzligini namoyon kilishiga bulgan xatti-xarakatlariga tuskinlik kilmaslik, ularga sabrtokat, chidam bilan munosabatda bulish darajasidir. Ushbu darajalarni ilmiy-nazariy va ilmiy-eksprementlar orkali anikdash tadkikrtchilar oldida turganmux,im vazifalardan biri sanaladi.

5. Tolerantlik madaniyati umumtarbiyaviy jarayonlarning tarkibiy kismi bulgani uchun umumtarbiyaviy tadbirlar moxiyatan bagrikenglik madaniyatini shakllantirish maksadini x,am uz ichiga olishi darkor.

6. Kishilararo, millatlararo, davlatlararo integratsiya inson manfaatlari, erki va xukukdarini ruyobga chikarish, erkin faoliyatda, ijodda, fikrini bayon etishda plyuralizm prinsiplariga amal kilish, bir suz bilan aytganda, antropologik paradigmadan kelib chikish mux,im ax,amiyatga egadir.

7. Tolerantlik madaniyati siyosiy-xukukiy madaniyatning kurinishidir. SHuning uchun siyosiy-hukukiy madaniyat xokimiyat uchun kurash va uz xukukini bilishgina emas, u keng ma'noda axlokiy, ma'naviy-madaniy bagrikenglikni shakllantirish imperativi xamdir. Ijtimoiy-tarbiyaviy va x,ukukiy-ma'rifiy tadbirlar ushbu ikki yunalish asosiga kurilsagina bagrikenglik madaniyati talabalar xayot tarziga, ijtimoiy faoliyatining tarkibiy kismiga aylanadi

Muloqotga kirishuvchi talabalar yaqinligi, bir-birlari bilan muloqotdan qoniqish hosil qilganligining yuksak darajasi, his-tuyg'ular va afzallikning taxmin qilinishi bilan belgilanadigan munosabatlar va o'zaro birgalikdagi harakatning barqaror, individual-tanlash tizimi bo'lgan do'stlik kishilar munosabatining alohida shakli sifatida yuz beradi. Do'stlikning rivojlanib borishi uning o'zaro hamjihatlikning zarurligini, oshkoralik va ochiqlikni, ishonchni, o'zaro faol yordamlashuvni, samimiylikni va his-tuyg'ularning beg'arazligini qaror toptiruvchi yozilmagan qonun-qoidaga amal qilishni taqozo etadi. Har bir insonning ijtimoiy tajribasi, uning insoniy qiyofasi, fazilatlari, hatto nuqsonlari ham muloqot jarayonining mahsulidir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

O'zbekistonlik psixolog olimlar ham tolerantlik muammosini turli jabhalarda o'rganib tadqiqot ishlarini olib bordilar. e.G'G'oziyev, A.Rasulov va L.Tursunovlar quyidagicha fikrlar bildirgan. Tolerantlik tushunchasi sotsial-psixologik jihatdan ta'riflanganda esa yana o'ziga xos mazmun ifodalaydi, ya'ni tolerantlik (lotincha toleraniia so'zidan olingan boiib, chidamlilik ma'nosini anglatadi) avvalo insondan biror kishiga munosabati, attityudi (hurmat qilish, qabul qilish, tushunish, e'tirof etish), ehtiyojlari, tafakkur tarzi, qadriyatlari, ijtimoiy normalari, g'oyalari hamda e'tiqodlarini ko'rsatib, ular asosida kishining individualligi omillaridan boTgan ijtimoiy mas'uliyat hissi shakllanib boradi. Ayniqsa, sotsial tolerantlikning shakllanishi va namoyon bo'lishini ta'minlovchi mexanizmlari xisoblangan kishilar, ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi

munosabatlardago farqlarda ko'rinadi. Tolerantlikni ta'minlovchi psixologik sifatlar sotsial tafovutlar namoyon boTganda insonlaming o'zlarida tenglikni namoyon etishlari yoki cheklashlarining barcha shakllarida kuzatiladi (bu holatni erkin yoki erkin bo'lmagan holda bajarishi.

Muhokama

Tolerantlik – insoniy bag'rikenglikning bir ko'rinishi yoki ifodasi bo'lib, inson uchun yoqimsiz, noxush bo'lgan biror omilga nisbatan qat'iy javobning yo'qligi yoki uning kuchsizligini bildiradi. O'sha vaziyat yoki omil qanchalik kursantga yoqmasada, u bunga chidaydi, bosiqlik qiladi, kerak bo'lsa moslashadi· SHaxslar majmuasidan iborat bo'lgan millat qanchalik murakkab bo'lmasin u butun insoniyatning ma'naviy va moddiy boyligi, go'zalligining timsoli hisoblanadi. Ayni paytda uning o'ziga xosligi bilan bir qatorda manfaatlari ham mavjudligi va cheksizligini hisobga olsak, millatlarning tinch va barqarorlikda yashashlari uchun ular ongida birdamlik manfaatlarini hisobga olishning muhim omili bo'lgan tolerantlikni shakllantirish amaliy ahamiyatga egadir. Insonlararo, millatlararo, davlatlararo va boshqa turdagi barcha zdddiyatlani tolerantlik tafakkurisiz biron to'xtam va echimga olib kelib bo'masligi aniq..

Talabalarga xos tolerantlikning negativ (bag'rikeng bo'lmaslikning irratsionalligi) va pozitiv (qadriyat, fazilat, progress, ozodlik, adolat) jihatlarini asoslashda, bu davrga xos inqirozli holatlar va vaziyatlar tahliliga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

Talaba shaxsining tolerantlikni u yoki bu ko'rinishdagi ijtimoiy-psixologik modeliga muvofiqligini tekshirishda hamda ularning ijtimoiy-psixologik va etnopsixologik xususiyatlarini ta'riflashda zamonaviy yondashuvlar o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Har qanday ijtimoiy hodisa tizimining tuzilmasi va elementlari funksiyasini aniqlash uni ta'riflashga asos bo'ladi. SHu tamoyilga ko'ra, «shaxs va jamiyat» munosabatlaridagi tolerantlikni davr taqozosi, anglangan tarixiy zaruriyat, jamiyat mavjudligining imkoniyati, barqaror taraqqiyot sababi, jamiyat mohiyatini va shaxs «sifatini» belgilovchi mezon tarzida qarash kerak. Bundan tashqari, bir tomondan, ularning sinonimlariga differensial yondashib adekvat ma'nosini topish muhim metodologik ahamiyatga ega. Masalan, «tolerantlik», «bag'rikenglik», «toqatlilik» va o'zaro sinonim tushunchalar definitsiyasi, aynan «shaxs va jamiyat» munosabatlarida konkretlashadi. YA'ni, ular maqsadiga ko'ra umumiy bo'lsa ham, mazmuni va funksional ko'lami bilan bir-biridan farq qiladi. Ikkinchi tomondan esa «shaxs va jamiyat»ning ijtimoiy-siyosiy munosabatlari dinamik rivojlanib borishi bilan ular o'rtasidagi munosabatlar tolerantligida ham muqarrar ravishda o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Natija

Muammoning echimi ham talabalik davridagi yigit-qizlarning tevarak-atrofdagi insonlar, xususan, ularga ta'sir ko'rsatuvchi referent guruh vakillari borasidagi ijtimoiy tasavvurlarining darajasiga bog'liq hisoblanadi. Tasavvurlar shakllanganligining yuqori darajasi o'spirinlik yoshidan boshlanib, unda borliq haqidagi bilimlar tizimi shakllangan bo'ladi va muhim hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan hodisa va ob'ektlar haqida tasavvurlar vujudga keladi. Bu tizimda shaxs uchun o'ta muhim elementlar uyg'unlashgan bo'ladi. Bu daraja tasavvurlar o'zining ob'ektivligi bilan xarakterlanib, ular shakllanish jihatidan ijtimoiy tabiatga ega bo'ladi.

Talaba shaxsi va jamiyat munosabatidagi tolerantlikning gnoseologik asoslari, bu munosabatlarga ta'sir ko'rsatuvchi sub'ektiv va ijtimoiy-psixologik omillarini, ulardagi etnopsixologik xususiyatlar rivojlanganligi hamda milliy o'zlikni anglaganliklari darajasidan kelib chiqib tadqiq etish joizdir. Sababi etnopsixologik xususiyatlarga yo'g'rilgan milliy ongning

«mental xususiyatlari» uning sub'ektlari, ya'ni ilk o'spirinlardagi etnik, ijtimoiy va kommunikativ subshkalalardagi tolerantlik indeksini belgilab beradi. Bunda davrga xos optatsiya (lotincha optatio – xohish, tanlov) bosqichi tolerantlikni aniqlanishida muhim mezon rolini bajaradi.

Biz psixologiyada tolerantlik xususiyatlari mazmuni, mohiyati, ko'rinishi, turlari kabilarga bag'ishlangan tadqiqotlarni o'rganish va tahlil qilish asosida sotsial tolerantlik tushunchasiga quyidagicha mualliflik ta'rifini ishlab chiqildi. Tolerantlik – kishining o'zaro ijtimoiy-psixologik jihatdan maqsadlarini amalga oshirishda o'zaro tushunish, o'z harakatlari, munosabatlarini boshqa odam, guruh va jamiyatga muvofiqlashtirishga intilishi, tashqi ko'rinishi, tajribasi, muloqot xususiyatlari, xulq-atvori, diniy e'tiqodlaridan qat'iy nazar boshqalarning nuqtai nazarini qabul qilish va hamkorlikka tayyorligi bo'lib, rahm-shafqat, qayg'urish, kechirimlilik, sog'lom sheriklik va tenglik ruhini saqlash, boshlarning qadr-qimmatini hurmat qilish, jamiyatdagi turli vaziyatlar va xolatlarni shundayligicha qabul qilishga tayyorligida ifodalanuvchi ijtimoiy-psixologik xususiyati ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Xulosa

Tolerantlik masalasi talabalik davridagi muhim psixologik muammolardan biri sifatida ekanligi nazariy jihatdan tadqiq etilgan mazkur bobning tahliliga tayanib quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin:

Birinchidan, tolerantlik umuminsoniy qadriyatlardan biri bo'lib, inson, millat, xalq, davlat va jamiyat kabi sub'ektlarning barqaror taraqqiy qilishiga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi muhim omil sanaladi hamda u murakkab hodisa sifatida o'zida turli soha muammolarini qamrab oluvchi shaxs, jamiyat va davlat darajasida namoyon bo'ladi.

Ikkinchidan, tolerantlik o'zaro munosabatlarda tomonlarning manfaatlari va o'ziga xosligini xurmat qilish hamda ularga toqatli bo'lishlikni ifoda etsa-da, ammo, u o'z manfaatlari hisobiga o'zgalarga yon berish yoki undan voz kechish emas, balki uni qondirishda yoxud amalga oshirishda o'zgalarning manfaatlari birligini e'tirof etish madaniyatidir.

Uchinchidan, sharq mutafakkirlari va allomalarining qarashlaridagi bag'rikenglik g'oyalarining gumanistik va umuminsoniy mohiyati, ularning mutaassiblik, aqidaparastlik hamda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashdagi o'rni nihoyatda katta bo'lib, shu jihatdan olib qaraganda, mutafakkirlarning asarlari, O'zbekistonda yashovchi barcha xalq, millat, elat, ijtimoiy qatlam va din vakillarining tinch-totuv yashashiga ko'maklashadi, diniy mutaassiblik, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda, milliy g'oyaning ijtimoiy-psixologik negizlarini tushunishda, ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

To'rtinchidan, talabalarga xos tolerantlikning negativ (bag'rikeng bo'lmaslikning irratsionalligi) va pozitiv (qadriyat, fazilat, progress, ozodlik, adolat) jihatlarini asoslashda, bu davrga xos inqirozli holatlar va vaziyatlar tahliliga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiq sanaladi.

Adabiyotlar:

1.Abakumova I.V. O stanovlenii tolerantnoy lichnosti v polikulturnom obrazovanii / I.V. Abakumova, P.N. ermakov // Voprosы psixologii. M., 2003. № 3. S. 78–82.

2.Asmolov A.G. Kulturno-istoricheskaya psixologiya i konstruirovanie mirov. – M.: MPSI, 1996. – 768 s.

3.Asmolov A.G. Tolerantnost: ot utopii k realnosti // Na puti k tolerantnomu soznaniyu. – M.: Smыsl, 2000. – S. 5–8.

4. Karimova ə. O‘zbek tolerantligi. – T.: Aloqachi, 2005. – B. 7–12.

5. Солдатова Г.У. Толерантност – норма жизни в мире разнообразия // Вопросы психологии. – М., 2002. – № 1. – С. 132–135.

6. G‘oziev ə.G‘. Ilk o‘spirinlik davrining o‘ziga xos xususiyatlari // Psixologiya. – Buxoro, 2011. – № 1. – B. 38–47.

1.